

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.TAR.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBROHIMOV NOZIMJON IXTIYOROVICH**

**BUXORO AMIRLIGINING HINDISTON BILAN SAVDO**  
**MUNOSABATLARI**  
**(XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Ibrohimov Nozimjon Ixtiyorovich**

Buxoro amirligining Hindiston bilan savdo munosabatlari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) .....5

**Иброхимов Нозимжон Ихтиёрвич**

Торговые отношения Бухарского эмирата с Индией во второй половине XIX – начале XX века.....27

**Ibrohimov Nozimjon Ikhtiyorovich**

Trade relations of the Bukhara Emirate with India in the second half of the 19<sup>th</sup> century – the beginning of the 20<sup>th</sup> century .....53

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.TAR.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBROHIMOV NOZIMJON IXTIYOROVICH**

**BUXORO AMIRLIGINING HINDISTON BILAN SAVDO**  
**MUNOSABATLARI**  
**(XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Tar1779 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ochildiyev Fayzulla Babakulovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudoyqulov To'liqin Do'stoboyevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Ergashev Jahongir Yunus o'g'li**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 raqamli ilmiy Kengashning 2026-yil "17" aprel soat 13.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (365) 221-27-07. e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

859 Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 20 " aprel kuni tarqatildi (2026-yil 20 " aprel dagi 2313-raqamli reyestr bayonnomasi)



**A.T.Ochilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

**B.B.Boltayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**K.R.Rahimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda jahonda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jadallashuvi kuzatilmoqda, ammo bu jadallashuv turli mintaqalarda xalqlarning iqtisodiy jihatdan notekis rivojlanishida namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyaviy va gumanitar xarakterga ega dasturlarni ishlab chiqish, mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish va iqtisodiy integratsiyasiga zamin yaratish kerakligi kabi muammolar vujudga kelmoqda. Shu boisdan, davlatlar manfaatlarining bir joyda to‘qnashuvini, savdo-sotiq va diplomatik aloqalar orqali boshqa davlatlar ichki ishlariga yashirin yoki ochiqdan-ochiq aralashuviga sabab bo‘lgan omillarning tarixiy ildizlarini har tomonlama o‘rganish dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

Dunyoning qator va ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalari tomonidan, xususan, Jahon savdo instituti (WTI, Shveytsariya), Iqtisodiy tarix markazi (Buyuk Britaniya), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya) tomonidan o‘rta asrlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar, Ipak yo‘li hududlari hamda Markaziy Osiyoda xalqaro diplomatiya va savdo aloqalari tarixini o‘rganish bo‘yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Natijada, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Markaziy Osiyo va Hindistondagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tarixiy-xronologik va hududiy-muammoviy yondashuvlarga doir ayrim ma‘lumotlar qo‘lga kiritilgan. Shunday bo‘lsa-da, hali-hanuz XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Buxoro-Hindiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar, savdo aloqalari va bundagi savdo yo‘llari hamda markazlarining tarixiy ahamiyati borasidagi masalalar o‘z yechimini kutmoqda.

Hozirgi kunda o‘zbek davlatchiligi tarixi, jumladan, Buxoro amirligi tarixini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu esa, davlatchilik va xalqaro munosabatlar tarixi bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. “Buxoro – Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlaridan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lidagi yirik va mashhur savdo markazlaridan biridir. Shahar umumjahon tamadduni rivojlanishining eng muhim bosqichlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘zining ming yillar davomida shakllangan boy va noyob tarixi bilan madaniy-ma‘rifiy va ma‘naviy-diniy qadriyatlarining rivojlanishiga ulkan hissasini qo‘shib kelgani bilan butun dunyoda shuhrat qozongan”<sup>1</sup>. Bunda Buxoro amirligi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari hamda xorijiy mamlakatlar, jumladan, Hindiston bilan olib borgan savdo aloqalari tarixiga oid ma‘lumotlarni qiyoslash va xolisona tahlil qilish o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2023-yil

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “2017–2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2980-sonli Qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/3577062/>

11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonlari, 2021-yil 1-apreldagi “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5047-sonli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “2022–2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 543-sonli qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘tgan davr mobaynida Buxoro amirligining tashqi diplomatik aloqalari, turli davlatlar bilan tashqi savdo aloqalarini bayon qiluvchi bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilib, turli fundamental adabiyotlar nashr qilingan. Adabiyotlar tahlili natijasida biz mavzuni o‘rganilganlik darajasini ochib beruvchi nashrlarni quyidagi to‘rt guruhga bo‘lishni joiz topdik. Bular:

1. Chor Rossiyasi davrida nashr qilingan asarlar, esdaliklar va kundaliklar;
2. Sovetlar hukmronligi davrida chop etilgan nashrlar;
3. Mustaqillik yillarida mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlar;
4. Mavzuga doir xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari.

Mavzuga doir adabiyotlarning keng ko‘lamda ekanligini inobatga olgan holda muammoning o‘rganilganlik darajasi va tarixshunosligi masalasini dissertatsiyaning birinchi bob birinchi paragrafida batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq “Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” mavzusidagi hamda Buxoro davlat pedagogik institutining ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq “Buxoro xonligi (amirligi) davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta‘siri: tarixiy tahlil” nomli loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo munosabatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Buxoro amirligining Hindiston bilan savdo aloqalariga doir manbalarni hamda olib borilgan tadqiqotlarni tahlil etish;

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Angliya-Rossiya raqobatining Buxoro-Hindiston savdo munosabatlariga ta‘sirini ochib berish;

Buxoro amirligining Hindiston bilan savdo aloqalarida savdo yo‘llari va

savdo markazlarining ahamiyatini ko'rsatib berish;

Buxoro amirligi bilan Hindiston savdo munosabatlaridagi asosiy mahsulot – choy savdosining o'rnini yoritib berish;

Buxoro amirligi va Hindiston savdo aloqalarining yutuqlari hamda muammolarini davriy ketma-ketlikda tahlil qilish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo munosabatlari tahlili belgilab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo munosabatlarining Buxoro amirligi va Hindiston hududlarida kechgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rnini, uning general-gubernatorlar bilan ziddiyatli munosabatlari, siyosat maydonidagi o'ziga xos jihatlari tahlili tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, obyektivlik va tizimli tahlil, muammoli-xronologik yondashuv, retrospektiv, tizimli tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Buxoro amirligining XIX asrdagi savdo munosabatlarida Hindiston alohida o'rin tutganligi, amirlik bozorlariga hind savdogarlari orqali ingliz savdo mollarining kirib kelishi natijasida Angliya va Rossiya mahsulotlari o'rtasida kuchli raqobat kelib chiqqanligi, ingliz-hind mollari rus mahsulotlariga nisbatan arzon sotilganligi, Rossiya imperiyasi amirlik bozorlaridan ingliz-hind mahsulotlarini siqib chiqarish maqsadida ularga nisbatan katta miqdorda qo'shimcha bojlar joriy qilganligi sababli Buxoro-Hindiston savdo munosabatlariga salbiy ta'sir qilganligi aniqlangan;

Buxoro va Hindiston o'rtasida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida savdo hajmining o'sish dinamikasi, mazkur savdo aloqalarida amirlikning Hindiston bilan import-eksport salohiyatining yuqori bo'lgani va iqtisodiy munosabatlarda buxorolik va hind savdogarlari faol bo'lganligi, Buxoro o'zaro savdo jarayonlarida muhim markaz sifatida ahamiyatini saqlab qolganligi, shuningdek, amirlik xo'jaligiga zarur kapitalning kirib kelishi bir qator omillarga asoslanganligi isbotlangan;

Buxoroning Hindiston bilan savdo munosabatlarida choy mahsuloti yetakchi o'rin tutganligi, amirlik aholisining choy mahsulotiga bo'lgan ehtiyojining yuqori bo'lgani, choy savdosida peshovarlik savdogarlarning mavqeyi baland bo'lganligi, choy navlari, sifati va narx-navosi arxiv va birlamchi manbalar bilan asoslangan;

Buxoro amirligi va Hindiston savdo aloqalarida savdo yo'llari, karvonsaroylar va bozorlarning qanchalik muhim ekanligi, savdo yo'llari, karvonsaroylar va bozorlardan tushadigan bojlarning amirlik xazinasiga katta foyda keltirgani, shuningdek, hind sudxo'rlarining amirlik aholisi orasida kredit-moliya xizmatlarini olib borganligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot davomida O'rta Osiyo masalasida Angliya-Rossiya raqobatining vujudga kelishi, Buxoro amirligi bozorlarida ingliz-hind va rus savdo mahsulotlari o'zaro kurashining Buxoro amirligiga Rossiya imperiyasining bosqinchilik

harakatlari amalga oshirilishiga sabab bo'lishi, oqibatda, Buxoro amirligining qaram davlatga aylanishi natijasida Buxoro amirligi va Hindiston savdo munosabatlariga aniqlik kiritilgan;

Arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, tarixiy tadqiqotlarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish jarayonida Buxoro amirligi va Hindistonning XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar qiyosiy o'rganildi. Bu jarayonda Buxoro-Hindiston savdo munosabatlarining o'zbek xalqi tarixida tutgan o'rniga aniqlik kiritilgan va yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiyada zamonaviy tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, arxiv hujjatlari, mahalliy tarixchilar asarlari, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, statistik to'plamlar va boshqalardan olingan ma'lumotlardan foydalanilganligi, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tarixi va Sharq tijorat dunyosida Buxoro amirligining tutgan o'rnini haqida ilmiy tasavvurlarni yanada chuqurlashtirishga hamda mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, bugungi kunda O'zbekistonning savdo-sotiq faoliyati hamda Chor Rossiyasi mustamlakachiligi yillaridagi tarixi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda, shuningdek, universitetlar, institutlar, akademik litseylarda darsliklar va o'quv qo'llanmalari tayyorlash borasida davlat dasturlarini bajarishda xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo munosabatlari tahlil qilish natijasida quyidagilar amaliyotga joriy qilindi:

Buxoro amirligining XIX asrda olib borgan savdo munosabatlarida Hindiston alohida o'rin tutganligi, amirlik bozorlariga hind savdogarlari orqali ingliz savdo mollarining kirib kelishi natijasida Angliya va Rossiya mahsulotlari o'rtasida kuchli raqobat kelib chiqqanligi, ingliz-hind mollari rus mahsulotlariga nisbatan arzon sotilganligi, Rossiya imperiyasi amirlik bozorlaridan ingliz-hind mahsulotlarini siqib chiqarish maqsadida ularga nisbatan katta miqdorda qo'shimcha bojlar joriy qilganligi sababli Buxoro-Hindiston savdo munosabatlariga salbiy ta'sir qilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar “O'zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Ekspeditsiya” ko'rsatuvini tayyorlashda keng foydalanildi (*O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Ma'rifat ijodiy birlashmasi” Davlat muassasasining 2025-yil 20-oktabrdagi 01-33/781-sonli ma'lumotnomasi*). Ko'rsatuv teletomoshabinlarga Buxoro amirligi davrida kechgan savdo aloqalari borasidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qilgan.

Buxoroning Hindiston bilan savdo munosabatlarida choy mahsuloti yetakchi o‘rin tutganligi, amirlik aholisining choy mahsulotiga bo‘lgan ehtiyojining yuqori bo‘lgani, choy savdosida peshovarlik savdogarlarning mavqeyi baland bo‘lganligi, choy navlari, sifati va narx-navosi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “O‘zbekiston tarixi” telekanali dasturlarini efirga tayyorlashda keng qo‘llanildi (*O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Ma‘rifat ijodiy birlashmasi” Davlat muassasasining 2025-yil 20-oktabrdagi 01-33/781-sonli ma‘lumotnomasi*). Ko‘rsatuv teletomoshabinlarga Buxoro amirligi davrida kechgan savdo-iqtisodiy aloqalari tarixi borasidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qilgan.

Buxoro va Hindiston o‘rtasida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida savdo hajmining o‘shish dinamikasi, mazkur savdo aloqalarida amirlikning Hindiston bilan import-eksport salohiyatining yuqori bo‘lgani va iqtisodiy munosabatlarda buxorolik va hind savdogarlari faol bo‘lganligi, Buxoro o‘zaro savdo jarayonlarida muhim markaz sifatidagi ahamiyatini saqlab qolganligi, shuningdek, amirlik xo‘jaligiga zarur kapitalning kirib kelishi bir qator omillarga asoslanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Buxoro viloyati davlat muzey-qo‘riqxonasida joriy qilindi (*O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 23-oktabrdagi 04-05/4189-sonli ma‘lumotnomasi*). Natijalar Buxoro viloyati davlat muzey-qo‘riqxonasida turli ko‘rgazmalar qilishda hamda fond materiallarini kataloglashtirishda qo‘llanilmoqda.

Buxoro amirligi va Hindiston savdo aloqalarida savdo yo‘llari, karvonsaroylar va bozorlarning qanchalik muhim ekanligi, savdo yo‘llari, karvonsaroylar va bozorlardan tushadigan bojlarning amirlik xazinasiga katta foyda keltirgani, shuningdek, hind sudxo‘rlarining amirlik aholisi orasida kredit-moliya xizmatlarini bajarganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Buxoro viloyati davlat muzey-qo‘riqxonasida joriy qilindi (*O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 23-oktabrdagi 04-05/4189-sonli ma‘lumotnomasi*). Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi natijasida Buxoro viloyati davlat muzey-qo‘riqxonasiga tashrif buyuruvchilarda Buxoro amirligi va Hindiston o‘rtasidagi savdo aloqalari bo‘yicha tushunchalarining boyishiga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalarining 3 tasi xalqaro va 2 tasi respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 142 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo munosabatlari tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi”** deb nomlangan birinchi bobi muammoning manbashunoslik va tarixshunoslik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda Buxoro-Hindiston savdo munosabatlarining o'rganilishi tahlil etilgan.

Buxoro va Hindiston o'rtasida amalga oshirilgan savdo aloqalari tarixini yoritishga doir manbalar keng qamrovli bo'lib, ularning mazmuni va yaratilgan davriga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1. Mahalliy mualliflar asarlari; 2. Arxiv materiallari; 3. Rus va xorijlik mualliflarning asarlari hamda “Туркестанский сборник” to'plamlari va “Туркестанские ведомости” gazetalaridagi materiallar.

Manbalarning birinchi guruhini mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan asarlar tashkil qilgan. Mavzuga doir manbalarda amirlik davlat apparatidagi xizmatchilarning amali va ularning mavqeyi, Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi, amirlikda yashovchi aholining turmush darajasi, yerga egalik shakllari, soliq va jarimalar to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Buxoro amirligi va Hindiston o'rtasida amalga oshirilgan savdo yo'llari, amirlikda yashovchi hindlarning savdogarlik va dallollik, sarrofluk hamda sudxo'rlik bilan shug'ullangani, hindlar amirlikning barcha hududlarida, jumladan, Labi Hovuz atrofida, Devonbegi karvonsaroyiga yaqin hovlilarda yashaganligi, ularning uylari pastak hamda oddiy mahalliy aholinikidan uncha farq qilmaganligi kabi ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Mirabdulkarim Buxoriy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Mirzo Salimbek, Muhammad Ali Baljuvoni va Ahmad Donishning<sup>2</sup> asarlari muhim manbalardir.

---

<sup>2</sup> Mir Abdoul Kerim Boukhary. Histoire de l'Asie centrale : (Afghanistan, Boukhara, Kiva, Khoqand), depuis les dernières années du règne de Nadir-Châh (1153) jusqu'en 1233 de l'hégire (1740–1818 / par Mir Abdoul Kerim Boukhary; publiée traduite et annotée par Charles Schefer.... 1876. – P. 72-73. Садриддин Айний. Асарлар. 8 жилдлик. 6-жилд. Эсдаликлар. 3-қисм (Тожиқчадан Т.Жалолов таржимаси. Ред. А.Рустамов) – Тошкент, «Тошкент» бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 240 б. Айний Садриддин. Бухоро: Хотиралар. Икки китобда. Китоб 1. С.Бородиннинг тожиқ тилидан таржимаси. – Душанбе: Ирфон, 1985. – 256 б., тўлиқ матн. Бухоро: Хотиралар. Икки китобда. Китоб 2. С. Бородин томонидан тожиқ тилидан таржимаси. – Душанбе: Ирфон, 1986. – 368 б.; тўлиқ матн. Тарихи инқилоби Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1987. – 240 б.; Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар // Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Ҳ.Болтабоев; Таҳрир ҳайъати: О.Шарафиддинов ва бошқ.; Масъул муҳаррир: Н.Каримов. – Т.: Маънавият, 2000. Жилд 1. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – 256 б.; Фитрат А. Ҳиндистонлик сайёҳ билан суҳбат. – Самарқанд, 1913. – Б. 10. Mirza Salimbek (1848–1930) dastlab o'z faoliyatini Ziyovuddin viloyati hokimi amir Muzaffar huzurida mirzalikdan boshlab, Amir Abdulahadxon davrida elchilik tarkibida Sankt-Peterburgga borgan. Yakkabog', keyinroq Nurota, Boysun, Sherobod va boshqa viloyatlarni boshqargan. Amir Olimxon davrida bosh zakotchi sifatida amirlikni moliyaviy ishlarini nazorat qilgan. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими / Перевод с персидского Н.К.Норкулова, редактор перевода А.К.Арендс, предисловие, ред. введения и примеч. А.С.Сагдуллаев. – Ташкент: Академия, 2009. –

Ikkinchi guruhdagi manbalar arxiv hujjatlari majmuidan iborat bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O'zMA) jamg'armalaridagi hujjatlardan iborat. Tadqiqotda O'zMAning quyidagi jamg'armalaridan keng foydalanildi: I-1-Turkiston general-gubernatori mahkamasi (devonxonasi), I-2-Turkiston general-gubernatorligi qoshidagi diplomatik amaldor, I-3-Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi, I-46-Toshkent bojxona inspektori, I-126-Buxoro amirligi qo'shbegi arxivi ma'lumotlaridan atroflicha foydalanildi. Bu jamg'armalarda Buxorodan Hindistonga chiqarilgan savdo mollarining umumiy hajmi va bahosi, Hindistondan har yili amirlikka eksport qilingan savdo mahsulotlarining umumiy miqdori keltirilgan. Buxoro-Hindiston savdosida choy, ipak mahsulotlari, ingliz shoyi matolari va ip gazlamalari, hind bo'yoqlari, paxtadan tayyorlangan tayyor va yarimtayyor mahsulotlar, dori-darmonlar, guruch mahsulotlari import-eksport qilingan.

Yuqorida keltirilgan barcha arxiv jamg'armalaridagi hujjatlar mavzuga doir muhim manba hisoblanib, ularda keltirilgan ma'lumotlarning aksariyat qismi ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi va tahlil qilindi.

Manbalarning uchunchi guruhi rus va xorijlik mualliflarning asarlari hamda "Туркестанский сборник" to'plamlari va "Туркестанские ведомости" gazetalaridagi materiallari ma'lumotlaridan iborat. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini o'ziga vassal qilib olgandan so'ng, bu hududlarga ko'plab rus va yevropalik tadqiqotchilar kelib, turli jabhalarda tadqiqot ishlarini olib bordi.

Bu guruhga doir manbalarda Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tarixi, Buxoro-Rossiya munosabatlari, Buxoro amirligining Hindiston va boshqa xorijiy davlatlar bilan olib borgan savdo aloqalari, amirlikdagi yirik savdo markazlari, ichki va tashqi savdo aloqalarini olib borishda savdo markazlarining tutgan o'rni kabi masalalar bayon qilingan.

Bu davrga oid Buxoro amirligi tarixini yoritishda birlamchi manba sifatida M.A.Terentyev, A.I.Maksheyev, D.N.Logofet, V.V.Krestovskiy, N.Stremouhov, N.A.Mayev, V.I.Massalskiy, R.Y.Rojovitsa, L.F.Kostenko, N.F.Petrovskiy, A.I.Xoroshxin, A.A.Kun, I.L.Yavorskiy, P.P.Shubinskiy, M.V.Grulev, A.Gubarevich-Radobyanskiy, P.I.Nebolsin, A.N.Subbotin, V.Klem va boshqalar tomonidan yaratilgan asarlarni kiritish mumkin<sup>3</sup>. Bu manbalarda Buxoro amirligi

---

330 с. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий / Тожиқ тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, З.Чориев. – Тошкент: Академия, 2001. – 124 б.; Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қискача тарихи. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2014. – 144 б.

<sup>3</sup> Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. В 3 томах. – СПб.: Б.И., 1906. Т. I. – 510 с., Т. II. – 547 с., Т. III. – 496 с.; 1906; Макшеев А.И. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских, ч. 1-2. – СПб., 1890; Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб.: Б.И., 1909. – 239 с.; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: Б.И., 1911. Т. I. – 340 с., Т. II. – 357 с.; Крестовский В.В. В гостях у эмира бухарского. – СПб., 1887. – 297 с.; Стрёмухов Н. Поездка в Бухару (извлечение из дневника) // Туркестанский сборник. – СПб., 1873. Т. 78. – С. 83–149; Маев Н. Очерки Бухарского ханства. – СПб.: Б.И., 1875. – 82 с.; Масальский В.И. Хлопковое дело в Средней Азии. – СПб., 1892. – 168 с.; Рожевица Р.Ю. Поездка в южную и среднюю Бухару // Известия ТОИРГО. – Ташкент, 1908. Т. 54. – С. 593–653; Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – СПб.: Б.И., 1871. – 371 с.; Петровский Н.Ф. Шелководство и шелкомотание в Средней Азии. – Ташкент, 1873. – 160 с.; Хорошхин А.И. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – СПб.: Тип. А.Траншеля, 1876. – 531 с.; Кун А.А. Очерки Шагрисебзского бекства // ЗИРГО по отделению этнографии. – СПб., 1880. Т. 6. – С. 203–237; Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и

tarixiga oid turli xil ma'lumotlar keltirilgan, Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo aloqalari tarixi ham qisman yoritilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot tarixini yoritishda Ole Olufsen, Yujin Skayler, G.Bunvalot, Fridrix fon Gilvald, A.Vamberi, Richard Frensis Burton, J.N.Kerzon va boshqalarning asarlarini kiritish mumkin<sup>4</sup>.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yozilgan yozma manbalarning ikkinchi guruhini “Туркестанский сборник” to‘plamlari va “Туркестанские ведомости” gazetalaridagi ma'lumotlar tashkil etadi. Bu to‘plamlarning ahamiyati shundaki, ularda keltirilgan ma'lumotlar mavzuni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularda Buxoro amirligining geografik o‘rni, tarixiy topografiyasi, turli yillardagi statistik ma'lumotlar, shu bilan birga, amirlik hududi orqali o‘tuvchi ichki va tashqi savdo yo‘llari, qo‘shni va xorijiy davlatlar bilan olib borilgan savdo aloqalari, qishloq xo‘jaligi, aholining turmush tarzi, urf-odatlar, joylashuvi va etnik tarkibi, hududning strategik ahamiyati kabi masalalar tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo munosabatlari tarixining tarixshunosligi davriylik nuqtayi nazardan quyidagi guruhlariga bo‘lgan holda talqin etildi: 1) sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 2) mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar; 3) MDH va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan asarlar.

**Birinchi guruhni** XX asrning 20–80-yillarida yaratilgan asarlar tashkil etadi. Bu tadqiqotlarda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining ichki va tashqi savdo aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy

---

Бухарскому ханству в 1876–1879 гг. – СПб.: Б.И., 1882. Т. I. – 383 с.; Шубинский П.П. Очерки Бухары // Исторический вестник. – №8. – СПб., 1892. – С. 370–390; Грулев М.В. Аму-Дарья. – Т., 1900. – 92 с.; Губаревич-Радобыльский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – СПб.: Б.И., 1905. – 278 с.; он же. Материалы для изучения хлопководства. Вып. II. – СПб., 1912. – 239 с.; Снесарев А.Е. Восточная Бухара. – СПб., 1906. – 148 с.; Небольсин П.И. Очерки торговли России со странами Средней Азии // Записки императорского Русского Географического общества. Кн. X. – СПб, 1855. – 447 с.; Субботин А.П. Россия и Англия на среднеазиатских рынках. Историко-экономических этюд. – СПб., 1885. – 88 с.; Клем В.О. Современное состояние торговли в Бухарском ханстве // СГТСА. Вып. 33. – СПб., 1888. – 29 с.

<sup>4</sup> Olufsen O. The Emir of Bokhara and his country. – Copenhagen, 1911. – p. 296; Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёхат қайдлари (З.А.Саидбобоев таржимаси). – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 137; Bunvalot G. Through The heart of Asia. Over the Pomir to India. Vol. I. – London, 1889. – P. 249; Гильвальд фон Фридрих. Земля и его народы. Перевод с немец. Ф.Груздева. В 4-х томах. Т. II. – СПб.: Изд. Л.П.Сойкина, 1898. – С. 230–252; Вамбери Г. История Бухары, или Трансоксании с древнейших времен до настоящего // Пер. А.И.Павловского. – СПб., 1873. Т. I. XXXIX. – 274 с.; Т.2. VI. – 226 с.; Burton R.F. Two Thousand Miles in Persia, Turkestan, and Central Asia: Travels from Persia to India Through Herat, Bala, Bela, Turkestan, and the Caspian Sea. – London: Tinsley Brothers, 1872; George Nathaniel Curzon. Russia in Central Asia in 1899, and the Anglo Russian Question. – London: Longmans, Green, and Company, 1899. – 535 p.

<sup>5</sup> Понятовский П. Бухарское хлебопашество // Туркестанский сборник. Т. 455. – С. 64–71; Зданевич И. Пагакисарь // Туркестанский сборник. Т. 441. – С. 41–43; Нечаев А.В. По горной Бухаре // Туркестанский сборник. Т. 554. – С. 60–117; Туркестанский сборник. Том. 6. – С. 51; Туркестанский сборник, том 7. – С. 177; Туркестанский сборник, том 26. – С. 99; Туркестанский сборник, том 150. – С. 112; Торговля Бухари. // Туркестанский сборник, том 526. – С. 5; Туркестанский сборник. Том 541. – С. 101; Леса Б.Л. В горной Бухаре // Туркестанские ведомости. 1911. – №72, 73, 100; Туркестанские ведомости. 1871. – №5; Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1871. – №29; Туркестанская ведомость. – №32. 1874. – С. 129; Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1877, – №16; Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1894. – №9; Мазов С.И. Восточная Бухара. Бадахшан и Северный Афганистан // Русское дело. 1886. – №18.

tarixiga doir ko‘plab ma’lumotlar ketirilgan. Jumladan, ularda amirlikning xorijiy davlatlar bilan olib borgan tashqi savdo aloqalari, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo munosabatlari, xorijdan olib kiritilgan mahsulotlarning turi va miqdori, amirlikdan xorijiy davlatlarga eksport qilingan savdo mollari va ularning hajmiga doir ma’lumotlar tahlil qilingan.

Mavzuga doir Sovet davrida tadqiqot olib borgan olimlardan A.I.Remez, M.Q.Rojkov, A.R.Muhammadjonov, T.Ne‘matov, Y.A.Lyusternik, N.A.Xalfin, P.P.Ivanov, B.I.Iskandarov, M.A.Xamrayev. I.G‘.Nizomiddinov, G.L.Dmitriyev, O.A.Suxareva, T.G.To‘xtametov, M.A.Abduraimov, T.Rasulzoda, K.Z.Xakimova va boshqalarning<sup>6</sup> tadqiqotlarini alohida ta’kidlash mumkin. Ushbu tadqiqotchilar Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, shuningdek, ichki va tashqi savdo aloqalari tarixiga doir ko‘plab ilmiy ma’lumotlarni taqdim qila oldi.

Mavzuning tarixshunosligiga doir **ikkinchi guruh** adabiyotlariga mustaqillik yillarida mahalliy tarixchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va chop etilgan asarlar kiritilgan. Ushbu ishlar o‘zining masalaga tarixiy haqiqat mezonlari nuqtayi nazaridan yangicha yondashuvlar asosida qaralganligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, D.Razoqov, Sh.B.Cho‘liiyev, R.E.Qilichev, R.E.Xoliqova, M.S.Kalandarova, B.Ergashev, T.Axmedov, R.Alimova, G.Normurodova, Sh.A.Hayitov, F.B.Ochildiyev, Sh.H.Davurova, D.Y.Rajabova, Sh.Y.Qudratovlar<sup>7</sup>

<sup>6</sup> Рemez И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: ЦСУ Турккесреспублики, 1922. – 45 с.; Рожков М.К. Экономическая политика царского правительства на Среднем Востоке во второй четверти XIX века и русская буржуазия. – М.-Л., 1949. – 219 б.; Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1957. – 221 б.; Люстерник Е.Я. Русско-индийские экономические связи в XIX веке. – М., 1958. – 98 с.; Халфин Н.А. Политика России в Средней Азии (1857–1868). – М.: Издательство восточной литературы, 1960. – 272 с.; Халфин Н.А., Рассадина Е.Ф. Н.В.Ханыков – востоковед и дипломат. – М., 1979. – С. 19; Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – начало XIX в.). – М., 1958. – 251 с.; Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и западный Памир во второй половине XIX в.). – М.: Восточная литература, 1958. – 131 с.; Искандаров Б.И. О некоторых изменениях в экономике восточной Бухары на рубеже XIX-XX вв. – Сталинабад: АН ТаджССР, 1958. – 141 с.; Хамраев М.А. Очерки истории Хисарского бекства конца XIX – начала XX вв. // Тр. АН ТаджССР. – Душанбе: Ирфон, 1959. – 212 с.; Низомиддинов И.Ф. Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари. – Т., 1961. – 102 б.; Дмитриев Г.Л. Из истории среднеазиатско-индийских отношений второй половины XIX в. – начала XX в.: автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Т., 1965. – 211 с.; Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент: АН УзССР, 1958. – 148 с.; Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX – начале XX веков. – Ташкент: АН УзССР, 1962. – 193 с.; Сухарева О.А. Бухара XIX – начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). – М.: Наука, 1966. – 329 с.; Тухтаметов Т.Г. Экономическое состояние Бухарского эмирата в конце XIX – начале XX веков // Тр. Института истории АН КиргССР. – Фрунзе, 1957. Вып. III. – 183 с.; он же. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1966. – 178 с.; он же. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. – Душанбе: Ирфон, 1977. – 208 с.; Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века. Т. I. – Т.: Фан, 1966. – 368 с.; Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века. Т. 2. – Т.: Фан, 1970. – 285 с.; Расул-заде П. Из истории среднеазиатско-индийских связей второй половины XIX – нач. XX вв. – Ташкент, 1968. – 323 с.; Хакимова К.З., Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. – Т.: Фан, 1980. – 174 с.; Хакимова К.З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX – начале XX вв. – Т., 1991. – 114 с.

<sup>7</sup> Разоков Д.Х. Бухоро хонлигининг ташқи савдо алоқалари (XIX асрнинг 60–90 йиллари): тар. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 190 б.; Чўллийев Ш.Б. XIX аср охириги чораги – XX аср бошларида рус-хинд муносабатларида Ўрта Осиё (“Туркистон тўплами” материаллари асосида): тар. фанл. номз. ... дисс. – Т., 1994. – 174 б.; Қиличев Р. Бухоро шаҳрида хунармандчилик (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент. Фан, 1996. – 48 б.; Холикова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида. – Тошкент, 2005. – 239 б.; Каландарова М. С. Индийцы в Бухаре в первой половине XIX в. // Восток (Ориент). 2002. – №5. – С. 54–61; Эргашев Б., Ахмедов Т. Ҳинд фуқароларининг Туркистондаги ҳаёти ва турмуш тарзи // O‘zbekiston

o'z tadqiqotlarida Buxoro amirligining iqtisodiy ahvoli va savdo aloqalariga doir samarali izlanishlar olib borgan.

Xorijiy tadqiqotchilarning Buxoro amirligi tarixini yoritishga bag'ishlangan asarlari **uchunchi guruhni** tashkil qiladi. Bulardan Anke fon Kyugelgen<sup>8</sup>, S.Bekker<sup>9</sup>, Selim O'zturk<sup>10</sup>, M.Yapp<sup>11</sup>, Zaki Validiy To'g'on<sup>12</sup>, B.I.Iskandarov<sup>13</sup>, B.Ismailova<sup>14</sup>, V.S.Kireyev<sup>15</sup>, A.V.Yorov<sup>16</sup>, F.M.Abdulvohidova<sup>17</sup>, A.G.Dankov<sup>18</sup>, A.Vilde<sup>19</sup>, S.Chatterjee<sup>20</sup>, G.Fraser<sup>21</sup>, H.A.Tahtoo<sup>22</sup>, M.Marsden<sup>23</sup>, A.Khair<sup>24</sup> va boshqa bir qator xorijlik tadqiqotchilarning Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayot, Buxoro amirligining Hindiston bilan aloqalariga doir bir qancha ma'lumotlar uchraydi.

Shunday bo'lsa-da, yuqorida nomi keltirilgan tadqiqotchilarning ishlarida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro amirligi bilan Hindiston

---

arxeologiyasi. – №2. 2017. – 78 б.; Алимova P. Ўрта Осиё хонликларининг кўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари (XVI–XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбалари асосида). – Тошкент: 2017. – 147 б.; Нормуродова Г.Б. Бухоро амирлиги ижтимоий қатламлари ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги роли (1868–1920 йиллар): тар. фанл. докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 72 б.; Очилдиев Ф.Б. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигида ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент, Firdavs-Shoh, 2022. – 296 б.; Давурова Ш.Х. Бухоро амирлиги савдо муносабатлари тарихи (1756–1868 йиллар): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2023. – 56 б.; Ражабова Д.Я. XIX асрнинг 2-ярми – XX асрнинг бошларида Бухородаги ҳиндуйлик конфессияси тарихи. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2022. – №8. – Б. 34–44; Қудратов Ш.Ё. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигида савдо алоқалари ва тадбиркорлик тарихи: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. – Бухоро, 2022. – 167 б.

<sup>8</sup> Анке фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII–XIX в.в.). – Алматы, 2004.

<sup>9</sup> Becker S. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva 1865–1924. – London and New York: Routledge Curzon, 2005. – P. 270.

<sup>10</sup> Selim Öztürk. The Bukharan Emirate and Turkestan under Russian rule in the revolutionary era: 1917–1924. – Ankara, №29. 2012. – 148 pp.

<sup>11</sup> Yapp M. Strategies of British India. Oxford. 1980. – pp. 14–16.

<sup>12</sup> Togan Zeki Velidi. Bugunki turkili (Turkistan) ve ekin tarihi, jild I. – Istanbul. 1981. – 255 с.

<sup>13</sup> Искандаров Б.И. Средняя Азия и Индия. – Душанбе, 1993. – 157 с.

<sup>14</sup> Исмаилова Б. Политическое и социально-экономическое положение Бухарского эмирата (вторая пол. XVIII – середина XIX века): дисс. докт. ист. наук. – Худжанд, 2004. – 299 с.

<sup>15</sup> Киреев В. С. Каста ростовщиков и банкиров в колониальной Индии // Восток (Oriens). 2004. – №1. – 205 с.

<sup>16</sup> Ёров А.Ш. Бухарский эмират на мировом рынке (вторая половина XIX – начало XX столетия): дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2005. – 153 с.

<sup>17</sup> Абдулвохидова Ф.М. Торговые отношения в восточной Бухаре в конце XIX и начале XX века: дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2022. – 214 с.

<sup>18</sup> Данков А.Г. Отечественная и Британская историография о соперничестве России и Великобритании в Центральной Азии (XIX – начало XXI вв.). автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Томск, 2008. – 27 с.

<sup>19</sup> Wilde A. The Emirate of Bukhara // Oxford Research Encyclopedia of Asian History. 2017.

<sup>20</sup> Chatterjee S. Modernizing Education in Central Asia: limitation of jadidism in the Emirate of Bukhara // Proceedings of the Indian History Congress. – Indian History Congress, 2000. – Т. 61. – С. 1125–1135; Chatterjee S. 1.2. The Emirate of Bukhara in the 19<sup>th</sup> and 20<sup>th</sup> Centuries: Reflections on Tran // Central Asia on Display: Proceedings of the VII<sup>th</sup> Conference of the European Society for Central Asian Studies. LIT Verlag Münster, 2004. Т. 1. – С. 31; Chatterjee S. Bukhara in a Revolutionary Time and its Indian Connections // Mapping Central Asia. – Routledge, 2016. – С. 21–36.

<sup>21</sup> Tahtoo H. A. Commercial relations between the Arab world and India (3rd and 4<sup>th</sup> / 9<sup>th</sup> and 10<sup>th</sup> centuries): diss. – University of St Andrews, 1987.

<sup>22</sup> Fraser G. Alim Khan and the Fall of the Bokharan Emirate in 1920 // Central Asian Survey. 1988. Т. 7. – №4. – С. 47–61.

<sup>23</sup> Marsden M. Beyond Bukhara: Trade, identity and interregional exchange across Asia // History and Anthropology. 2018. Т. 29. – № sup1. – S. 84–100.

<sup>24</sup> Khair A. India-Uzbekistan Relations through Cultural Connectivity // Journal of Central Asian Studies. 2021. – Т. 28.

o'rtasidagi savdo aloqalari tarixi, uning muhim xususiyatlari va omillari borasida batafsil ma'lumotlar uchramaydi.

Dissertatsiyaning **“XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshida Buxoro va Hindistonning siyosiy-iqtisodiy aloqalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro amirligining siyosiy kurash maydoniga aylanishi, ya'ni Buxoro bozorlarini egallash maqsadida rus-ingliz raqobatining vujudga kelishi va buning bevosita Buxoro-Hindiston savdo aloqalariga ko'rsatgan salbiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, Buxoro-Hindiston aloqalarida yo'llar, karvonsaroylar va savdo markazlarining o'rni va ta'siri qanchalik muhim bo'lgani manbalar asosida yoritib berilgan. Buxoro-Hindiston savdo munosabatlarida choy savdosining asosiy savdo mahsuloti ekanligi va choyning amirlik aholisi orasida keng iste'molda qo'llanilganligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Angliya va Rossiya davlatlari o'rtasida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari uchun raqobat kuchayib, ikki davlat o'rtasidagi vaziyat keskinlashib bordi. Raqobatning kuchayishiga bir qancha omillar sabab bo'lib kelgan: birinchidan, O'rta Osiyo davlatlarini bosib olish va mustamlakaga aylantirish; ikkinchidan, o'z mahsulotini sotish va katta daromad olish uchun O'rta Osiyo bozorlarini egallash istagi; uchinchidan, O'rta Osiyoni o'zining xomashyo bazasiga aylantirish maqsadini amalga oshirishdan iborat bo'lgan.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun har ikki davlat o'z elchi va josuslarini Buxoro amirligiga tinimsiz yuborib turishadi. Josuslar orqali to'plangan ma'lumotlar (savdo yo'llari, xomashyo bazalari, bozorlar, aholining turmush darajasi, hukumat vakillari bilan yaqin munosabatlar, harbiy holat va boshqalar) mustamlakachi davlatlarning O'rta Osiyoga yaqinlashuviga katta imkoniyat yaratib beradi.

XIX asr o'rtalariga kelib O'rta Osiyo Rossiya va Angliya o'rtasidagi keskin siyosiy va iqtisodiy kurash maydoniga aylanib ulgurdi. Britaniyaning Shimoli-G'arbiy Hindistondagi mulklari O'rta Osiyo davlatlari bilan chegaralana boshladi. Bu holat inglizlarning Markaziy Osiyoda siyosiy va iqtisodiy bosimi kuchayishiga imkoniyat yaratdi. XIX asrning 40-yillari oxirida O'rta Osiyoda savdo-sotiq bilan shug'ullangan rostovlik savdogar Pichugin amirlik bozorlariga Mashhad va Kobul orqali ingliz tovarlari katta miqdorlarda kirib kelishini yozgan. Shuningdek, Angliyaning Buxoro amirligi va Xiva xonligini bosib olishi mumkinligidan xavotirga tushganligini bildirib o'tgan<sup>25</sup>.

XIX asrning 50-yillarida Rossiyani iqtisodiy va siyosiy tushkunlik qamrab olgan bir paytda rus hukumati o'z nigohini Buxoro amirligi va qo'shni xonliklarga qarata boshladi. Bundan rus hukmron doiralari ikki maqsadni ko'zlagan: birinchidan, Buxoro va O'rta Osiyoni o'zining xomashyo bazasiga aylantirish, ikkinchidan esa, O'rta Osiyo bozorlarini rus tovarlari sotiladigan bozori sifatida qarashgan<sup>26</sup>.

---

<sup>25</sup> Рожкова М.К. Экономические связи России Средней Азией (40–60-е годы XIX века). – Москва, 1963. – С. 42.

<sup>26</sup> Ёров А.Ш. Бухарский эмират на мировом рынке (вторая половина XIX – начало XX столетия): дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2005. – С. 66.

O'rta Osiyoda inglizlarning amalga oshirgan savdo va siyosiy ekspansiyasi Rossiyaning O'rta Osiyoga agressiv siyosatining tezroq boshlanishiga turtki bo'ldi. 1863–1868-yillarida Rossiya hukumati O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatish maqsadida Janubiy Qozog'iston va Shimoliy Qirg'izistonni, Toshkent hamda Samarqand vohalarini bosib oldi. Shuningdek, Buxoro amirligini ham o'z vassali sifatida tan olishga majbur qildi<sup>27</sup>.

1868-yilda Buxoro ustidan Rossiya hukmronligi o'rnatilgach, Buxoro amirligi va Afg'oniston o'rtasidagi chegara masalasida uzoq va murakkab rus-ingliz muzokaralari boshlandi. Bu masala bo'yicha muzokaralar 1869-yilda boshlanib, faqatgina 1872-1873-yillarga kelib tashqi ishlar idoralari o'rtasida notalar almashish orqali yakuniy kelishuvga erishildi<sup>28</sup>. Natijada Buxoro amirligi Rossiyaning ta'sir doirasi sifatida tan olindi, Afg'oniston esa, Rossiya va Angliyaning mustamlakalari o'rtasidagi "betaraf hudud" deb e'lon qilindi.

Rossiya bojxonasi amirlik tashqi savdosi ustidan o'z nazoratini o'rnatguniga qadar Buxoroga Hindistondan har yili o'rtacha 5 million rubllik<sup>29</sup> mol keltirilgan bo'lsa, XIX asr oxirlariga kelib bu ko'rsatkich 800 ming rublga tushib ketgan<sup>30</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, rus ma'murlarining olib borgan chora-tadbirlari o'z samarasini bera boshlagan. Bundan tashqari, Rossiya Batumi tranzit yo'lini ochib, Buxoroni Kavkazorti temir yo'li va Dobrovolniy floti paroxodlari orqali bevosita Xitoy choy plantatsiyalari bilan bog'langandan keyin ham Peshovar choy firmalari o'z faoliyatlarini to'xtatishmagan bo'lsa-da, Buxoro-Hindiston savdo aloqalari ancha izdan chiqdi.

O'rta Osiyoda XIX asrda Angliya va Rossiya o'rtasidagi raqobat natijasida Rossiyaning siyosiy va harbiy bosimi Buxoro tashqi savdosining katta qismini Rossiya bozorlariga bog'lab qo'ydi. Angliya Buxoro orqali Hindistonga kirishni istagan bo'lsa-da, Rossiyaning harbiy va diplomatik ustunligi bunga to'sqinlik qildi. Bu hol Buxoro-Hindiston savdo aloqalarini cheklagan bo'lsa-da, ipak, jun, choy, nil bo'yog'i, qimmatbaho toshlar va hunarmandchilik mahsulotlari savdosi to'xtab qolmagan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Hindiston o'rtasida olib borilgan savdo aloqalari Afg'onistonning Kobul, Hirot va Qandahor shaharlaridan o'tuvchi karvon yo'llari orqali amalga oshirilgan<sup>31</sup>. Tijorat ishlarini olib borishda karvon yo'llarining o'rni beqiyos bo'lib, savdogarlar o'z tovarlarining manzillariga xavfsiz va tezroq yetib borishidan manfaatdor bo'lgan.

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib Buxoro-Hindiston savdo aloqalari bir nechta karvon yo'llari va ularning tarmoqlari orqali amalga oshirilgan. Hindistonning Peshovar shahridan yo'lga chiqqan savdo karvoni Hindikush tog'lari orqali Xaybar dovonidan o'tib, 3 kun yo'l yurib Jalolobod shahriga, undan so'ng esa Kobulga

<sup>27</sup> Халфин Н.А. Политика России в Средней Азии (1857–1868). – М.: Восточной литературы, 1960. – С. 3.

<sup>28</sup> Абдулвохидова Ф.М. Торговые отношения в восточной Бухаре в конце XIX и начале XX века: дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2022. – С. 101.

<sup>29</sup> Клем В.О. Современное состояние торговли в Бухарском ханстве // СГТСА. Вып. 33. – СПб., 1888. – С. 2–3.

<sup>30</sup> Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент, 1922. – С. 18.

<sup>31</sup> Ochilidiyev F. B. Trade relations of the emirate of Bukhara with India in the 60-80 years of XX century // Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. 2023. Т. 3. – №06. – P. 38–45.

kelishgan. Bu yerda savdogarlar olib kelayotgan yuklari uchun zakot solig'ini to'lab, yana yo'lida davom etishgan. Savdogarlar Kobulga yetib kelishlari uchun asosiy muammo Xaybar dovonida yashovchi qabilalar sanalgan. Ular doim savdo karvonlariga hujum qilib turishgan. Ularning hujumidan saqlanish uchun savdogarlar Xaybar dovonida yashovchi povinda qabilasining qurolli kuchlaridan foydalanib kelishgan. Kobuldan yo'lga chiqqan karvon Bomiyongacha 16 kun yo'l yurgan. Bu davrda savdogarlar Sarichashma, Xulm va Bomiyonda to'xtab, zakot to'lashgan. Bomiyondan chiqqan karvon Balxgacha 2 kun, Balxdan Karkigacha esa, 7-9 kunlik yo'lni bosib o'tib, bu shaharlarda ham zakot to'lab, Qarshi shahriga yetib kelgan. Bu yerdan Qo'qon va Toshkentga boruvchi savdogarlar Samarqand orqali o'z manzillariga, Buxoroga boruvchilar esa, amirlikning turli hududlariga yo'l olishgan<sup>32</sup>. Savdo karvoni Buxorodan Hindistonga qaytishda ham Qarshi va Karkida boj to'lab, afg'on hududiga kirishgan. Savdogarlar Balx, Xulm, Bomiyon va Kobul shaharlarida yana boj to'lab, Jalolobodga, undan so'ng Xaybar dovoni orqali Peshovarga o'tib ketishgan.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab, hindistonlik savdogarlar Buxoro bozorlariga hind savdo mollari bilan birga ingliz tovarlarini ham olib kelishgan. Ingliz-hind mollari amirlik hududiga, asosan, ikki yo'nalish orqali olib kirilgan. Birinchi yo'nalish Kalkutta yoki Bombaydan Peshovar orqali Kobulga, u yerdan Buxoroga, ikkinchi yo'nalish esa suv (dengiz) yo'li orqali Fors qo'ltig'idagi Bandar-Bushehr portiga, bu portdan Isfahon, Mashhad, Marv va Chorjo'y orqali Buxoroga olib kelingan. Ikkinchi yo'nalishdagi yo'ldan savdogarlar kam foydalanishgan. Ya'ni ulardan, asosan, favqulodda vaziyatlarda foydalanishgan. Shuningdek, Hindiston tovarlarini Buxoroga Eron yo'llari orqali olib o'tish nisbatan qisqa bo'lsa-da, Eron orqali Buxoroga olib kirilgan tovarlarning tannarxi Afg'onistondan olib kirilganga nisbatan 4 rubl 30 tiyin qimmat bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, bu yo'ldan har yili Buxoroga 60 ming puddan ortiq choy, 14 ming pudga yaqin ingichka ipakli ingliz matosi, 6 ming dona bo'yoqlar keltirilardi<sup>33</sup>. Bunda Bombay portida kemalarga yuklangan mollar Fors qo'ltig'idagi Bandar-Abbos yoki Bandar-Bushehr port-shaharlariga keltirilib, bu yerdan tuyalarda Yazd orqali Mashhadga, so'ngra Hirot orqali Buxoroga keltirila boshlangan. Mollarning Bandar-Abbos yoki Bandar-Bushehr portlaridan Mashhadga yetkazilishida Eronning Kirmon, Yazd va Xuroson viloyatlarining chorvador aholisi ishtirok etgan. Bunda ular tashiladigan har bir pud mol uchun bahor va yozda 12 qiron (2 so'm-u 40 tiyin), qishda esa 15 qiron (3 so'm) yo'lkira haqqi olishgan. Eron hukumati esa, bu yo'l orqali Buxoroga keltirilayotgan har bir pud yuk uchun Bandar-Abbos yoki Bandar-Bushehrda 1 so'm-u 20 tiyin, Yazdda 1 so'm-u 20 tiyin, Mashhadga 20 tiyin boj olgan<sup>34</sup>. Yo'lkiraning qimmatligi va yo'l yurish uzoq muddat talab etilishi Eron yo'liga nisbatan Afg'oniston orqali yurish Buxoroga ko'proq miqdorda mol keltirilishiga sabab bo'lgan.

Buxoro-Hindiston savdo aloqalarida quruqlik yo'llaridan tashqari Chorjo'ydan Qarshi orqali Saroygacha bo'lgan masofada cho'zilgan Amudaryo

<sup>32</sup> Тетеревникова А.Н. Очерк внутренней торговли киргизской степи. – СПб., 1867. – С. 64.

<sup>33</sup> О'zMA. I-46-jamg'arma, 1-ro'xat, 12-ish, 73-vaq.

<sup>34</sup> Торговля Бухари. // Туркестанский сборник. Том 526. – С. 11.

suv yo‘lidan ham foydalanilgan. Masalan, Qarshi – Termiz – Saroy yo‘lining Sherobod – Qarshi – Buxorogacha bo‘lgan yo‘nalishida yuklarni tashish uchun bir oy davomida 500 tagacha, qishda esa, 1000 tagacha tuya yollash mumkin bo‘lgan. Tuyalarda yuklarni tashish narxlari turlicha bo‘lgan. Sheroboddan Qarshigacha – 3 rubl-u 40 kopeykadan 4 rublgacha, Kalifgacha – 3 rubldan 3 rubl-u 50 kopeykagacha, G‘uzorgacha – 2 rubl-u 60 kopeykadan 3 rublgacha, Amudaryo kechuvidagi Cho‘chqaguzargacha – 1 rubl-u 60 kopeykadan 1 rubl-u 90 kopeykagacha kira haqqi olingan<sup>35</sup>.

Hindistondan Buxoro amirligiga Batumi porti orqali mol keltirishga ruxsat etilgan bo‘lsa-da, Buxoro hukumati bu yo‘ldan kutgan natijani qo‘lga kirita olmadi. Batumida hind mollari uchun oltin hisobida yuqori boj<sup>36</sup> olinishi (choyning pudi uchun – 21 rubl, nil bo‘yog‘ining pudi uchun – 3 rubl-u 30 tiyin, kimxobning funti uchun – 7 rubl-u 20 tiyin, Kashmir shol materiali funti uchun – 3 rubl-u 95 tiyin) o‘zaro savdo-sotiq ishlariga jiddiy ta‘sir qildi. Natijada eski karvon yo‘llarining ahamiyati yanada oshib bordi.

Buxoro amirligining ichki va tashqi hamda xorijiy mamlakatlar bilan olib borgan savdo ishlarida savdo markazlarining o‘rni muhim sanalgan. Tijorat ishlarini olib borishda Buxoro amiri Abdulahadxon ham mashhur bo‘lib, uning davrida (1885–1910) Buxoro, Qarshi, Karmana, Nurota, Xatirchi, Termiz, Hisor, Dushanbe, Denov, Shahrisabz, Sherobod, Kitob va G‘uzor kabi shaharlarda karvonsaroylar qurilib, bu shaharlar yirik savdo markazlariga aylandi. Shu bilan birga, bu karvonsaroylar amirlik hududiga keluvchi savdogarlarga qulaylik yaratish maqsadini ham ko‘zlagan.

Amirlikning yirik savdo markazlari va qishloq bozorlaridan ham ingliz-hind mahsulotlarini xarid qilish mumkin bo‘lgan. Bu davrda Buxoro bozorlarida rus va ingliz tovarlari o‘rtasida katta raqobat yuzaga keldi. Ingliz-hind mollari quyidagi narxlarda savdoga chiqarilgan: uzunligi 24, eni 1,5 arshin doka – 15-17 tanga, eni 2 arshin bo‘lgan 1-navli surp – 2 tilla, 2-navi – 1,5 tilla, 3-navi esa, 1 tilla, sariq alvonning har 20 tasi – 34 tilla, qizili esa, 40 tilla, choyni “lunka” navining 4 pudi – 55 tilla, “gura” navi – 40 tilla, “qarqma” navi – 30 tilla, “oqbo‘sh” navi esa, 25 tilla, 1 pud indigo (nil) bo‘yog‘i – 4-4,5 tilla, 1 botmon shakar – 16 tilla, 1 botmon qalampir – 24 tilla<sup>37</sup>. XIX asrning 40-50-yillarida amirlik bozorlarida sotilgan ingliz-hind mahsulotlarining bahosi XIX asrning 70–90-yillariga nisbatan sezilarli darajada farqlangan.

Buxoro amirligida savdo-sotiq ishlari yanvar oyidan may oyigacha jadal olib borilgan va savdo yarmarkalari tashkil qilingan. Bu savdo yarmarkalariga O‘rta Osiyoning barcha hududlaridan hamda Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Xitoy va Rossiya kabi xorij davlatlaridan savdogarlar kelishgan. Savdo mavsumida katta miqdorda mahsulotlar ortilgan savdo karvonlari Buxoroga kelishgan va o‘zlari uchun mo‘ljallangan karvonsaroylarga joylashishgan. Buxoro amirligining quyidagi karvonsaroylarida hind savdogarlari savdo qilganlar: 1. Mirzagul

<sup>35</sup> Очилдиев Ф.Б. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар. – Тошкент, 2008. – Б. 138.

<sup>36</sup> О‘зМА. I-1-jamg‘arma, 34s-ro‘yxat, 714s-ish, 8-varaq.

<sup>37</sup> Туркестанский сборник. Т. 32. 1871. – С. 340.

karvonsaroyi. Bu saroyda afg'onlar, hindlar va marvlik savdogarlar tomonidan band qilinib, ular olib kelgan mahsulotlar saqlangan. 2. Badriddin karvonsaroyida esa, Kobul, Peshovar va Kashmir savdogarlari ish yuritib, mahalliy va xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdosi bilan shug'ullanishgan. 3. Xoja Jo'ybor karvonsaroyi hind savdogarlariga xizmat qilgan. Bu yerda ingliz-hind tovarlari sotilgan. 4. Hindiyon karvonsaroyida asosan hindistonlik savdogarlar istiqomat qilib, Hindistondan keltirilgan savdo mollari sotilgan. 5. Qo'shbegi karvonsaroyida hind va fors savdogarlari istiqomat qilib, ular tomonidan olib kelingan mahsulotlar saqlangan. Buxoroda fors savdogarlari juda ozchilikni tashkil qilgan. 6. Ismoil xo'ja karvonsaroyini esa, Andxo'y, Maymana, Shibirg'on va Oqchadan kelgan savdogarlar band qilishgan. Ular Buxoroga quritilgan mevalar va pista mahsulotlarini olib kelishgan. 7. Barra karvonsaroyida hindlar istiqomat qilib, faqat nil bo'yog'ini sotish bilan shug'ullangan<sup>38</sup>. Bu karvonsaroylarda yashovchi savdogarlarga qulay imtiyozlar berilgan. Mirshablar ularning ishlarga aralashmagan va ular saroyda ancha erkin yashashgan. Lekin karvonsaroyda har qanday ko'ngilxushlik qilish qat'iyan man etilgan, belgilangan joylardan tashqarida chekish, ichish ham taqiqlangan. Karvonsaroylarda milliy tarkibiga ko'ra, o'zbeklar, tojiklar, tatarlar, ruslar, yahudiylar, hindlar, afg'onlar va eronliklar ko'pchilikni tashkil etgan<sup>39</sup>. Sadriddin Ayniy hindistonlik savdogarlarning katta qismi doimiy ish va yashash joyi sifatida Buxoro shahri va uning chekka hududlarini tanlaganini bayon qilgan<sup>40</sup>. Shuningdek, Buxoro shahrida hindlarga tegishli uch (Xoja Jo'ybor, Hindiyon va Barra) karvonsaroyning har birida yuz-yuz ellik nafargacha hind sudxo'rlik va savdo bilan shug'ullangan.

XIX asrning 50-yillaridan boshlab hindistonlik savdogarlar Buxoro amirligi bozorlariga hind choylarini olib kirish sezilarli darajada ko'paydi. Bu davrgacha amirlikka choy mahsulotlari Xitoydan Qashqar va G'ulja orqali olib kirilgan. 1864-yilda Sharqiy Turkistonda bo'lib o'tgan qo'zg'olon Xitoy choyni Buxoro bozorlariga kirib kelishiga salbiy ta'sir qildi. Bu esa, amirlik va O'rta Osiyo bozorlariga hind choyni yirik miqdorda kirib kelishiga keng yo'l ochib berdi<sup>41</sup>.

Bundan tashqari, inglizlar Xitoydan Hindistonga keltirilgan choylarni hind savdogarlariga 3 yil muddatga (5 foizlik) kreditga bergani va o'z o'rnida peshovarlik savdogarlar ham choyni Buxoroga keltirib, mahalliy savdogarlarga kreditga berishi ham asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

XIX asrning 60-yillarida hindistonlik savdogarlarning Buxoroga olib kelgan savdo mollari ichida choy savdosi asosiy o'ringa ko'tarilgan. Inglizlarning choy savdosi borasida olib borgan chora-tadbirlari natijasida 1875–1889-yillar oralig'ida Hindistondan amirlik va O'rta Osiyo bozorlariga olib kirilgan choy miqdori 5 barobarga ko'paygan<sup>42</sup>. Xitoydan Buxoro amirligi bozorlariga esa, bu davrda

<sup>38</sup> Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). – М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1983. – С. 60.

<sup>39</sup> Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975. – С. 100.

<sup>40</sup> Садриддин Айний. Эсдаликлар. 3-кисм (Тожиқчадан Т.Жалолов таржимаси; Ред. А.Рустамов) – Тошкент, 1965. – Б. 53.

<sup>41</sup> Терентев М.А. Англия и Россия в борьбе за рынки. – СПб., 1876. – С. 40.

<sup>42</sup> Субботин А. П. Чай и чайная торговля в России и других странах. – СПб., 1892. – С. 24.

choy eksporti atigi 5 foizga o‘sgani kuzatiladi<sup>43</sup>. Buxoro bozorlarida rus savdogarlari tomonidan Xitoyning Kyaxtasidan keltirgan choylarga nisbatan hind choylari ancha arzon sotilgan. Hind choylari sifat jihatidan ham rus savdogarlari keltirgan choy navlari bilan raqobatdosh bo‘lgan.

Buxoro shahridagi Abdurashid, Badriddin, Barrayi ko‘hna, Domlasher, Ismoil xo‘ja va Mirzagul karvonsaroylari aynan choy saqlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning eng kattasi “Saroyi Abdurashid” karvonsaroyi hisoblangan. Rus hukumati Hindiston Buxoro bozorlariga olib kiriladigan choy savdosini taqiqlash uchun bir necha marta qarorlar qabul qiladi. Lekin bu urinishlar o‘z samarasini bermadi. 1860-yilda rus savdogari Nikolay Ivanov fon Kaufmanga yozgan xatida Buxoro amirligiga har yili Hindistondan 600 tuya choy keltirilgani, uning miqdori 84 ming puddan ortiq ekanligi qayd etilgan<sup>44</sup>. Manbalarda keltirgan ma‘lumotlarga ko‘ra, “Saroyi Abdurashid” karvonsaroyi bir yilda 3 ming tuya, “Saroyi Mirzagul” karvonsaroyi 1500 tuya, “Saroyi Badriddin” karvonsaroyi esa, 1200 tuya choyni qabul qilgan<sup>45</sup>. Bu karvonsaroylarda choyning 16 xil navi sotilgan<sup>46</sup>.

Arxiv hujjatlarida 1867-yil 14-sentabrda Hindistondan amirlik bozorlariga olib kelingan choy navlari, miqdori, narxi va uning sifati to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Buxoro bozorlarida 1. oq choy 4 pud uchun – 90 tilladan (342 rubl), 2. oq zardcha choy – 75 tilla (285 rubl), 3. kumush choy – 95 tilla (361 rubl), 4. sapet (safed, oq) choy – 90 tilla (342 rubl), 5. oq kumush choy – 70 tilla (266 rubl), 6. qobuga oq choy – 65 tilla (241 rubl), 7. ris oq choy – 50 tilla (190 rubl), 8. qarqma choy – 55 tilladan (209 rubl), 9. past navli qora choy bir funt uchun – 1 rubl-u 40 tiyindan, 10. oilaviy choy (qora) bir funt uchun – 1 rubl 60 tiyin, 11. guli siyoh (qora) bir funt uchun – 3 rubl, 12. sansin qora choyi bir funt uchun – 3 rubl, 13. kanton qora choyi bir funt – 3 rubl, 14. kanton ko‘k choyi bir funt uchun – 1 rubl-u 50 tiyin, 15. safed choy – 2 rubl, 16. Safed-tyanzi – 46 tilla (174 rubl-u 80 tiyin), 17. pur choy – 1 rubl-u 70 tiyindan sotilgan<sup>47</sup>.

Buxoro bozorlarida Hindistondan keltirilgan choy ancha arzon bo‘lib, bir pud choy 20-28 rublgacha baholangan. Buxoro savdogarlari yaxshi foyda olish uchun hind choyni bir pudiga 14 rubl-u 40 kopeyka boj to‘lab, Turkiston o‘lkasining turli hududlariga olib borishgan. Toshkent bozorida bir pud choy 54 rubldan sotilgan<sup>48</sup>. To‘langan boj pulini qo‘shib hisoblaganda savdogarlar choy savdosidan 11 rubl-u 60 kopeykadan, boj to‘lamay yashirin yo‘l orqali olib kirilgan har bir pud choydan esa 26 rublgacha foyda ko‘rganlar. Demak choyni amirlik hududida sotgandan ko‘ra Turkiston hududiga chiqarib sotish manfaatli bo‘lgan.

Natijada 1881-yilda rus hukumati tomonidan “ingliz-hind choysidan boj olish to‘g‘risida” qaror qabul qilinadi. Biroq shunga qaramay amirlik hududiga choyni kirib kelishi yildan-yilga oshsa-oshdi, lekin to‘xtab qolmadi. 1886-yil oktabr oyida Hindistondan Afg‘oniston orqali Buxoro amirligi hududiga 200 dan ortiq tuyada

<sup>43</sup> Очилдиев Ф.Б. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигида ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент, Firdavs-Shoh, 2022. – Б. 223.

<sup>44</sup> О‘зМА. I-jamg‘arma, 11-ro‘yxat, 151-ish, 11-varaq.

<sup>45</sup> Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1877. – №16.

<sup>46</sup> Петровский Н. Моя поездка в Бухару. – Ташкент, 1872. – С. 236-237.

<sup>47</sup> О‘зМА. I-1-jamg‘arma, 16-ro‘yxat, 203-ish, 19-varaq.

<sup>48</sup> О‘зМА. I-1-jamg‘arma, 34s-ro‘yxat, 714-ish, 8-varaq.

choy keltirilgan bo'lsa, 1889-yili Hindistondan Kobul orqali Buxoro amirligiga 35 400 pud Xitoy choyi, 11 360 pud hind ko'k choyi olib kirilgan<sup>49</sup>.

Buxoroda yirik Peshovar choy kompaniyalari kotiblari ham faoliyat yuritgan bo'lib, 1890-yillarning o'rtalarida Buxoroda Peshovarning 23 ta choy agentligi mavjud bo'lgan va ulardan Buxoroning yirik savdogarlari choy sotib olishgan<sup>50</sup>. Rus hukumatining Buxoro bozorlaridagi choy savdosini o'z qo'llariga olish maqsadida peshovarlik savdogarlarni siqib chiqarish uchun qilgan harakatlari o'z samarasini bermagan. Buni D.N.Logofet Hindistondan Buxoroga keltirilgan choy biroz kamayganini hisobga olmaganda, Buxoro bozorlarida hindlar hali ham yetakchilik qilishini ta'kidlagan<sup>51</sup>.

Buxoro va Hindiston o'rtasidagi savdo aloqalarida choy savdosi muhim o'rin egallaganiga sabab shuki, u faqatgina ichimlik sifatida emas, balki iqtisodiy ravnaq va madaniyat almashinuvi vositasi sifatida ham ahamiyatli bo'lgan.

Dissertatsiyaning **“Buxoro-Hindiston savdo-iqtisodiy aloqalari: yutuqlar va muammolar”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Buxoro-Hindiston savdo munosabatlarining muhim jihatlariga e'tibor berilgan. Bu bobda ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari davriy jihatdan yilma-yil yoritilgan bo'lib, manbalar asosida tahlil qilib o'tilgan.

Uchinchi bobdan Buxoro amirligining mustaqil davlat sifatidagi Buxoro-Hindiston savdo aloqalari, yarimmustamlaka davridagi savdosi va rus bojxona tizimiga kiritilgandan keyingi Buxoro-Hindiston savdosi o'rin olgan.

Hindistonning Shikarpur, Mo'ltan kabi shaharlaridan Buxoro amirligiga oltin iplar qo'shib to'qilgan shoyi gazlamalar, yupqa ip-gazlamalardan to'qilgan sallalik va astarlik matolar, marvarid va qimmatbaho toshlar, Kashmir shol materiali, nil bo'yog'i, qalampir, muskat yong'og'i, novshadil, chinnigul, dolchin, ziravorlar, choy, to'qimachilik mahsulotlari, dori-darmonlar, paxmoq kabi mahsulotlar olib kirilgan<sup>52</sup>. Buxoro amirligi aholisi o'rtasida Hindistondan keltiriladigan ko'k choy va Peshovar guruchi sevib iste'mol qilingan. Buxoroliklar dasturxonidagi eng tansiq taom Peshovardan keltiriladigan guruchdan tayyorlanadigan palov bo'lib, u “palovi peshovari” deb atalgan. Buxoro bozorlarida bu guruchning narxi juda arzon bo'lgan. Qarshi bozorida bu guruchning bir funtini 20 tiyindan sotib olish mumkin bo'lgan<sup>53</sup>. Buxoro amirligidan Hindistonga, asosan, teri va jundan tayyorlangan tayyor mahsulotlar, jun tolasi, gilamlar<sup>54</sup>, ipak va paxta matolari, qo'zichoq terisi, jun, ro'mol eksport qilganlar. Bundan tashqari, buxorolik savdogarlar boshqa zarur mahsulotlar bilan birga rus sanoatida ishlangan mahsulotlar hamda rus oltinlarini ham olib chiqqanlar. Bu davrda Buxoro shahri Yevropadan keltirilgan hamda rus, ingliz va

<sup>49</sup> Губаревич-Радобильский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. – СПб., 1912. Вып. II. – С. 107.

<sup>50</sup> Маматова М.Б. Чой ва Чой йўли Ўзбекистон халқлари тарихида (мил. ав. I аср – XXI аср): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2021. – 27 б.

<sup>51</sup> Логофет Д.И. Бухарское ханство под протекторатом России. Т. I. – СПб., 1911. – С. 181.

<sup>52</sup> Вамбери Г. История Бухары или Трансоксании с древнейших времен до настоящего. Т. 1, 2. – СПб., 1873. – С. 214.

<sup>53</sup> Петровский Н. Моя поездка в Бухару. – Ташкент, 1872. – С. 222.

<sup>54</sup> Гафуров Б. Точикон таърихи қадимтарин, қадим ва асрҳои миёна. Кт. 1. – Душанбе, 1983. – С. 114.

hind tovarlari saqlanadigan ulkan ombor sifatida e'tirof etilgani Buxoroning tijorat markazi bo'lganligini anglatadi.

Amirlikda hind savdogarlari savdo ishlari bilan birga pul qarz berish bilan, ya'ni sudxo'rlik bilan ham shug'ullanib kelgan. Dastlab ular savdo-sotiq bilan shug'ullanib, ma'lum darajada kapitalga ega bo'lgandan so'ng ba'zi savdogarlar o'z ishini tashlab, sudxo'rlik bilan shug'ullana boshlaganlar.

Buxoro shahrida hind sudxo'rlarining asosiy qismi yashashgan bo'lib, bank-kredit operatsiyalarini Shikarpur shahridan kelgan savdogarlar amalga oshirishgan. Shikarpur Shimoliy Hindistondagi yirik shaharlardan biri bo'lib, o'zining bankirlari va sudxo'rlari bilan nom taratgan. Buxoro zodagonlari, yirik savdogarlar, dehqon va hunarmandlar, shuningdek, rus savdogarlari va amaldorlari Shikarpur sudxo'rlarining mijozlari bo'lishgan<sup>55</sup>. Buxoroda sudxo'rlik faoliyati bilan hindlar shug'ullanishiga asosiy sabab, islom dinida bu ish qoralangan. Shuning uchun bu ish bilan musulmon bo'lmagan hindlar shug'ullanishgan.

Buxoro amirligi bilan Hindiston o'rtasidagi savdo aloqalari keng qamrovli bo'lib, amirlik savdogarlari Afg'onistonning Kobul, Hirot hamda Qandahor shaharlaridan o'tuvchi karvon yo'llari orqali Hindistonning yirik savdo markazlari hisoblangan Peshovar, Panjob, Shikarpur, Bomiyon va Mo'ltan shaharlari bilan mustahkam aloqa o'rnatganlar<sup>56</sup>.

Manbalarda 1860-1870-yillarda Buxoro amirligi va qo'shni xonliklarda inglizlarning savdo balansi ruslarnikiga nisbatan 22 karra ko'p bo'lgani qayd qilingan<sup>57</sup>. Туркестанский сборник to'plamida 1868-yili Hindistondan amirlik hududiga 6 500 tuya tovar olib kelingani aytiladi<sup>58</sup>. M.K Rojkov 1869-yilda esa, Buxoro amirligiga turli nomdagi 6 560 tuya savdo mollari keltirilganini qayd qilgan<sup>59</sup>.

Bu ma'lumotlarni o'zaro taqqoslaydigan bo'lsak, ular o'rtadagi farq deyarli bir xil bo'lganligini ko'ramiz. Bu esa, Buxoro-Hindiston o'rtasida olib borilgan savdo ishlari uzluksiz davom etganligini ko'rsatadi. Buxoro amirligiga ingliz-hind mollarining yirik miqdorda kirib kelishiga hind musulmon savdogarlarining o'zni muhim bo'lgan. Chunki hinduizm diniga mansub savdogarlarga nisbatan musulmon hindlarning Buxoroga olib kirgan tovarlariga sarflaydigan boj xarajatlari ancha ozroq bo'lgan. Bundan ingliz sarmoyadorlari samarali foydalanib, musulmon hind savdogarlari orqali o'z tovarlarini olib kirib, katta foyda ko'rishgan.

Rossiya imperiyasi tomonidan 1868-yilda Turkiston o'lkasiga Yevropa va Hindistondan keltirilgan ingliz mollarini kiritishga taqiq qo'yilgan. Shundan so'ng amirlik bozorlarida paxtadan to'qilgan ingliz gazlamalari rus gazlamalariga nisbatan ancha qimmatlab ketgan. Natijada ingliz-hind matolari amirlik va Turkistonga noqonuniy va kontrabanda yo'li bilan kirib kelishi kuchayib ketgan.

---

<sup>55</sup> Хорошхин А. Сборник статей, касающихся Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 508.

<sup>56</sup> Низомиддинов И.Г'. Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 100.

<sup>57</sup> Туркестанский сборник. Том. 150. – С. 112.

<sup>58</sup> Туркестанский сборник. Том. 26. – С. 9.

<sup>59</sup> Рожкова М.К. Экономические связи Росси Средней Азией (40–60-е годы XIX века). – Москва, 1963. – С. 98.

XIX asrning 80-yillariga kelib Buxoro-Hindiston savdo munosabatlari taraqqiy etib, ingliz-hind mahsulotlarining amirlik bozorlariga kirib kelishi kuchaygan. Natijada amirlik va Turkiston o'lkasida rus tovarlari savdosiga salbiy ta'sir qilgan. Bu holat Rossiya imperiyasi korchalonlariga yoqmagan albatta. Turkiston o'lkasidan ingliz-hind raqobatini sindirish uchun 1881-yilda Rossiya hukumati tomonidan Turkiston o'lkasi, Buxoro va Xiva xonliklari bozorlaridan ingliz-hind tovarlarini siqib chiqarish maqsadida "ingliz-hind choyiga yirik miqdorda boj joriy qilindi. Shuningdek, ingliz-hind mollarni O'rta Osiyo xonliklariga kiritilishini nazorat qilish to'g'risida" qaror qabul qilingan<sup>60</sup>.

1881-yilda ingliz-hind tovarlariga nisbatan chiqarilgan qaror ham to'liq o'z samarasini bermagan. Buni Rossiya imperatori Aleksandr III ning Buxoro amiri Muzaffarxonga 1881-yilning iyun oyida Hindistondan 3 ming, iyulda esa, 2 ming tuya<sup>61</sup> savdo karvoni kelganligidan norozi bo'lib yo'llagan xatidan bilamiz. Bunday holatning davom etishi, oxir-oqibat, rus hukumati tomonidan keskin choralar ko'rishni taqozo etadi. 1894-yil 6-iyundagi qonun bilan alohida Kaspiyorti okrugi tashkil etilgan. Buxoro amirligi bojxonasi esa, Turkiston bojxona okrugi boshlig'iga bo'ysundirilgan. Kaspiyorti bojxona okrugi Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Turkiston o'lkasi, Afg'oniston, Hindiston va Erondan olib kelinadigan barcha savdo tovarlarini nazorat qiladigan bo'lgan<sup>62</sup>.

1894-yil yozida Rossiya matbuotida bojxonaning Samarqanddan Yangi Buxoroga ko'chirilishi, Ashxobod va Kalifda bojxonalar tashkil etish to'g'risida xabarlar paydo bo'ldi. Natijada 1895-yil 1-yanvardan rasman Buxoro amirligi hududida Buxoro, Kalif, Karki, Pattakesar bojxonalari, Bassarg'a, Chuchqaguzar, Ayvaj, Saroy, Cho'bak va Bog'orak bojxona postlari tarmog'i tashkil qilindi<sup>63</sup>. Buxoro amirligining Rossiya bojxona tizimiga kiritilishi natijasida Hindiston va Afg'onistondan ba'zi ingliz tovarlarini Buxoro amirligiga olib kirish taqiqlandi va qolganlari uchun katta miqdorda boj belgilandi.

Arxiv manbalarida 1895-yilga qadar Hindistondan Buxoroga yiliga 4-5 mln rubllik savdo tovarlari olib kirilgani aytilgan<sup>64</sup>. 1895-yildan so'ng esa Hindistondan Buxoro amirligiga olib kelingan savdo mollarning umumiy qiymati yiliga 800 ming rublga tushib ketgan<sup>65</sup>.

XX asrning boshlariga kelib, Buxoro-Hindiston o'rtasida mol ayirboshlashning miqdori keskin qisqarib ketdi. Hindistondan Buxoroga keltiriladigan mollarning qiymati har yili 800 ming rubldan, Buxorodan Hindistonga chiqariladigan tovarlarning qiymati esa 500-600 ming rubldan oshmagan. Hindistondan Buxoroga, asosan, choy, indigo va muslin olib kelingan.

<sup>60</sup> O'zMA. I-1-jamg'arma, 12-ro'uxat, 1162-ish, 59- va 162-varaq.

<sup>61</sup> O'zMA. I-1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 504-ish, 63- va 75-varaq.

<sup>62</sup> Очилдиев Ф.Б. XIX асрнинг охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигида божхоналар фаолияти // Вухоро davlat universiteti Ilmiy axboroti. 2025. – №6. – Б. 115.

<sup>63</sup> Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – Т. 2. СПб., 1912. – С. 287.

<sup>64</sup> O'zMA. I-1-jamg'arma, 11-ro'uxat, 504-ish, 3-varaqning orqa tomoni.

<sup>65</sup> Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент, 1922. – С. 18.

## XULOSA

“Buxoro amirligining Hindiston bilan savdo munosabatlari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)” mavzusini taqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi bilan Hindiston o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi manbalarga elchilar, savdogarlar va sayyohlarning yozib qoldirgan xotiranomalari, kundalik daftarlari va safarnomalari, shuningdek, bu davr mahalliy va xorijlik mualliflarning asarlari, arxiv ma‘lumotlari va davriy nashrlar kiradi. Bu manbalarda keltirilgan ma‘lumotlardan shuni aniqlab olish mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar aksariyat savdo xarakteriga ega bo‘lib, har ikki davlat ham o‘zaro iqtisodiy aloqalardan birday manfaatdor bo‘lgani sababli, bu savdoni kengaytirishga va uni rivojlantirishga doimo harakat qilganlar.

2. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining Hindiston bilan olib borgan savdo munosabatlari tarixshunosligi rus sharqshunoslari, sayohatchilar, Buxoro va Hindiston bozorlariga oid hujjatlar hamda ingliz ma‘murlarining hisobotlarida yoritilgan. Ammo sovet davri tarixshunosligida voqealar biryoqlama yoritilgan bo‘lsa-da, hozirgi davrda ular mintaqaviy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida xolis baholanmoqda. Mustaqillikdan keyingi o‘zbek tarixshunosligida mazkur mavzu yangicha yondashuvlar bilan tadqiq qilina boshlandi. Jumladan, Buxoro amirligi tashqi savdosida Hindistonning tutgan o‘rni, bu aloqalarning mahalliy iqtisodiyotga ta‘siri hamda xalqaro siyosiy vaziyat bilan bog‘liqligi qayta baholana boshlandi.

3. XIX asrda Markaziy Osiyo hududi Angliya va Rossiya imperiyalari o‘rtasidagi raqobat maydoniga aylandi. Bu raqobat nafaqat harbiy-siyosiy, balki savdo-iqtisodiy sohalarida ham o‘z aksini topadi. Ayniqsa, Buxoro amirligi bu ikki imperiya o‘rtasida joylashgan bo‘lib, o‘zining strategik mavqeyi va Hindiston bilan qadimiy savdo yo‘llari tufayli muhim o‘rin egalladi. Markaziy Osiyoda Angliya-Rossiya raqobati Buxoro-Hindiston savdo aloqalarining tanazzuliga, mintaqaning iqtisodiy mustaqilligi yo‘qotilishiga hamda Rossiya imperiyasining iqtisodiy ustunlikka erishishiga olib keldi.

4. XIX asrning o‘rtalaridan boshlab markaziy hokimiyatning kuchayishi bilan Buxoro amirligida savdo-sotiq ishlari ancha taraqqiy etdi. Shaharlarning qishloqlarga iqtisodiy ta‘siri kuchaydi. Bu davrda Buxoro amirligi Qo‘qon va Xiva xonligi, Afg‘oniston, Hindiston kabi xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalari izchil davom etgan. Sharqiy Xuroson savdo yo‘lining ahamiyati bu davrda ham saqlanib qolindi. Amirlikka olib keluvchi savdo yo‘llari ko‘p tarmoqli va murakkab tizimga ega bo‘lganligi savdo karvonlari va savdogarlarga noqulayliklar tug‘dirgan. Tog‘ va tog‘oldi yo‘llarida, asosan, tuya, ot va eshak kabi ulovlardan foydalanilgan bo‘lsa, amirlikning tekisliklar orqali o‘tgan yo‘llarida aravalardan ham foydalanilgan.

5. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab amirlikda savdo-sotiq ishlari sezilarli darajada rivojlanishi savdo markazlari soni ko‘payib, karvonsaroylar va savdo majmualari qurilishi ishlari jonlandi. Amirlikdagi bozorlarning nufuzi oshib, Turkiston o‘lkasiga hamda xorijiy mamlakatlarga chiqaradigan tovarlarning miqdori oshdi. Buxoro amirligiga Rossiya va xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni olib kirish bir necha barobarga oshdi. XX asr boshlariga kelib bozorlar sotiladigan mahsulot turiga qarab ixtisoslashdi. Bu davrda rus va ingliz tovarlarining Buxoro bozorlaridagi salmog‘i ko‘payib, sanoat va fabrikalarda ishlab chiqarilgan zamonaviy turdagi tovarlarning kirib kelish miqdori kengaydi. Bozorlarda raqobat kuchayib, rus va ingliz mollarining narxi nisbatan arzonlashdi.

6. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX boshlarida ham Buxoro amirligi va Hindiston o‘rtasida savdo aloqalari izchil davom etgan. Bu davrda ikki mamlakat o‘rtasida choy savdosi asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Hindistondan amirlikka keltirilgan ingliz-hind mahsulotlarining ichida aholining choyga bo‘lgan talabi kuchayadi. Natijada choy savdosi bilan shug‘ullanuvchi rus savdogarlariga katta muammo tug‘dirib, ularni kasodga uchratadi. Rossiya hukumati Buxoro-Hindiston o‘rtasida amalga oshirilayotgan savdoni cheklash maqsadida choy mahsulotiga qo‘shimcha soliq va bojlar joriy qiladi. Lekin aholining hind choyiga bo‘lgan talabi Rossiya hukumati tomonidan choyga nisbatan joriy qilingan qo‘shimcha soliq va bojlar ham bu jarayonni to‘xtatib qololmadi. Hindistondan amirlikka keltirilgan choy miqdori biroz kamayganini hisobga olmaganda, Buxoro bozorlarida hindlar choy savdosini yuritishda yetakchilik qilib kelgan.

7. XIX asrning 50–70-yillari Buxoro va Hindiston o‘rtasidagi savdo aloqalari barqaror o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lgan davrdir. Ushbu davrda Buxoro Hindiston bilan quruqlik yo‘llari orqali faol savdo qilgan. Bu savdo amirlik iqtisodiyotini jonlantirgan va mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantirgan. Ayniqsa, XIX asrning 50-60-yillarida savdo-sotiq yuqori nuqtaga chiqadi. Ipak mahsuloti choy savdosidan keyin eng ko‘p sotilgan mahsulot hisoblanadi. Bu davrda Buxoro bozorlari va karvonsaroylari hind-ingliz mollari bilan to‘lib-toshgan. Bundan tashqari, hind savdogarlari orasida sudxo‘rlik bilan shug‘ullanish ham avj oladi. Sababi, amirlik aholisining aksariyat qismi musulmonlardan iborat bo‘lganligi uchun sudxo‘rlik qoralangan. Bundan hind sudxo‘rlari yaxshigina daromad manbayi sifatida foydalanishgan. Biroq bu barqarorlik siyosiy omillar, ayniqsa, Rossiyaning Markaziy Osiyoga kengayishi barobarida an’anaviy karvon yo‘llari savdosini kamaytirgan va mintaqaviy iqtisodiy muvozanatni buza boshlagan.

#### XIX

asrning

60-yillari oxiri va 70-yillarida ingliz-hind mahsulotlariga joriy qilingan taqiqlar natijasida narx-navoning oshishi va savdo aloqalari doirasining qisqarishiga olib kelgan.

8. Buxoro-Hind savdosi, asosan, vositachilar (Afg‘oniston va Eron orqali) orqali amalga oshgan. Chunki bu ikki davlat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengiz aloqasi yo‘q. Buxoro-Hindiston mahsulotlari karvon yo‘llari yoki chegara orqali tashilgan. Hindistondan asosiy import paxta va to‘qimachilik mahsulotlari (tayyor va yarimtayyor matolar), choy, shakar, ziravorlar, ba’zi metall buyumlar va kundalik iste‘mol mollari bo‘lib, ayniqsa, hind to‘qimachiligi va choyiga talab

katta bo'lgan. Buxorodan Hindistonga paxta xomashyosi, ipak, gilam, jun va teri, chorvachilik mahsulotlari, ba'zi hunarmandchilik buyumlari va qishloq xo'jaligi xomashyolari eksport qilingan. Savdo ishlari, ko'pincha, buxorolik, afg'on, tojik va fors vositachilari orqali amalga oshirilib, narx-navo va bojlar ularning nazoratida bo'lgan. XIX asrning 80-90-yillarida Buxoro amirligi va Hindiston o'rtasidagi savdo munosabatlari davom etgan bo'lsa-da, ammo ko'lam va hajm jihatidan zaiflashgan edi. Bunga asosiy sabablar, Rossiya imperiyasining siyosiy va iqtisodiy ta'siri (temir yo'l, bojxona) hamda "Katta o'yin" natijasida yuzaga kelgan siyosiy cheklovlar va yangi sanoat mahsulotlarining kirib kelishi bo'lgan.

9. XX asr boshidagi Hindiston-Buxoro savdo munosabatlari Buxoroning iqtisodiy hayotida import-eksport yo'nalishlarini mustahkamlash, mahalliy to'qimachilik va paxta eksporti tarmoqlarini rivojlantirish va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Hindiston Buxoroning Sharq mamlakatlari bilan olib boradigan savdo hamkorlaridan biri sifatida savdo aloqalari bir necha asrlar davomida saqlanib kelgan. Bu aloqalar XX asr boshlarida ham iqtisodiy jihatdan o'z ahamiyatini butunlay yo'qotmagan.

Tadqiqot yakunida qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Buxoro viloyati davlat muzey-qo'riqxonasida doimiy ravishda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro-Hindiston o'rtasidagi savdo-sotiqni aks ettiruvchi mahsulotlar ko'rgazmalarini tashkil etishni yo'lga qo'yish lozim;

2. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Hindiston savdogarlari orasida muloqotda bo'lgan savdo yo'llari xaritasini bugungi zamonaviy formatda ishlab chiqish va bu orqali Buxoro viloyatiga hind sayyohlarini keng jalb qilish;

3. Buxoro amirligining Hindiston bilan savdo munosabatlari tarixiga oid ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, xususan, Buxoro amirligi tarixiga doir maxsus uslubiy qo'llanma ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda foydalanish;

4. Buxoro amirligining hind savdogarlari yashab, savdo ishlarini olib borgan karvonsaroylar joylashgan joylarga maxsus tablichkalar tayyorlash va bu karvonsaroylar joylashgan manzillar geolokatsiyasini ishlab chiqish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.TAR.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ИБРОХИМОВ НОЗИМЖОН ИХТИЁРОВИЧ**

**ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА С ИНДИЕЙ  
(вторая половина XIX – начало XX века )**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

**Бухара – 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована под номером B2024.1.PhD/Tar1779 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Очилдиев Файзулла Бабакулович,**  
доктор исторических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Худойкулов Тулкин Дустбобоевич,**  
доктор исторических наук, профессор

**Эргашев Жахонгир Юнус угли,**  
доктор философии (PhD) по историческим наукам,  
доцент

**Ведущая организация:**

**Навонийский государственный университет**

Защита диссертации состоится в 13.00 часов «17» апреля 2026 г. на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.TAR.08.01 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 230100, г. Бухара, ул. М.Икбола, 11. Тел.: (0365) 221-29-14; факс: (365) 221-27-07. E-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 833). (Адрес: г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, e-mail: [buxdu\\_arm@umail.uz](mailto:buxdu_arm@umail.uz)).

Автореферат диссертации разослан «02» апреля 2026 г.

(реестр протокола рассылки № 2313 от «02» апреля 2026 г.)



**А.Т. Очиллов,**  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор исторических наук (DSc),  
профессор

**Б.Б. Болтаев,**  
Секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор философии (PhD) по  
историческим наукам, доцент

**К.Р. Рахимов,**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
доктор исторических наук (DSc),  
профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сегодня в мире наблюдается ускорение социально-экономического развития стран, но это ускорение проявляется в экономическом неравномерном развитии народов в разных регионах. Поэтому возникают такие проблемы, как разработка международными организациями программ финансового и гуманитарного характера, расширение экономических связей между странами, углубление международного сотрудничества и создание основы для экономической интеграции. Поэтому всестороннее изучение исторических корней факторов, которые привели к столкновению интересов государств в одном месте, тайному или открытому вмешательству во внутренние дела других государств через торговые и дипломатические отношения, остается актуальной научной задачей.

Ряд мировых научно-исследовательских центров и высших учебных заведений, в частности, Институт мировой торговли (WTI, Швейцария), Центр экономической истории (Великобритания), Оксфордский университет (Великобритания), проводят эффективные исследования по изучению социально-экономических связей в средние века, истории международной дипломатии и торговых отношений в регионах Шелкового пути и Центральной Азии. В результате получены некоторые сведения об историко-хронологическом и территориально-проблемном подходах к политическим, социально-экономическим отношениям в Центральной Азии и Индии во второй половине XIX – начале XX века. Тем не менее остаются нерешенными вопросы, касающиеся дипломатических отношений, торговых связей и исторического значения торговых путей и центров между Бухарой и Индией во второй половине XIX – начале XX века.

В настоящее время изучение истории узбекской государственности, в том числе истории Бухарского эмирата, достигло нового уровня. Это расширило масштабы исследований, связанных с историей государственности и международных отношений. «Бухара – один из древних городов Центральной Азии и один из крупных и известных торговых центров на Великом шелковом пути. Своей богатой и уникальной историей, сложившейся на протяжении тысячелетий, неразрывно связанной с важнейшими этапами развития мировой цивилизации, город прославился во всем мире своим огромным вкладом в развитие культурно-просветительских и духовно-религиозных ценностей»<sup>1</sup>. При этом сравнение и объективный анализ данных, касающихся социально-экономических отношений населения Бухарского эмирата и истории торговых отношений с зарубежными странами, в том числе с Индией, отличается своей актуальностью.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-6097 «О Концепции развития науки до 2030 года» от 29

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "2017–2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2980 sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/3577062>

октября 2020 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-158 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 11 сентября 2023 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5047 «О мерах по дальнейшему совершенствованию государственной политики в области науки и государственного управления в области инновационного развития» от 1 апреля 2021 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 543 «О мерах по дальнейшему развитию сферы туризма в Бухарской области в 2022–2026 годах» от 28 сентября 2022 года, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере..

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

